

V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2023- yil yanvar-iyun)


	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	8 327,9	110,1	100,0
<i>shu jumladan:</i> xizmat turlari bo‘yicha			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	444,7	125,8	5,3
Moliyaviy xizmatlar	1 511,3	119,9	18,1
Transport xizmati	1 526,7	108,7	18,3
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari			
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	229,9	104,4	2,8
Savdo xizmatlari	2 595,2	107,7	31,2
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	215,0	101,9	2,6
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	362,5	121,4	4,3
Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	184,4	99,8	2,2
Ijara va prokat xizmatlari	131,6	91,1	1,6
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	232,5	102,9	2,8
Boshqa shaxsiy xizmatlar	533,0	102,6	6,4
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	89,4	102,1	1,1
Boshqa turdagи xizmatlar	271,7	107,1	3,3

Namangan viloyatining 2023-yil yanvar-iyun oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,2 %), transport xizmatlari (18,3 %) moliyaviy xizmatlar (18,1 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,8 %) tashkil etgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, (% da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 8 327,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 107,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 31,2 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 108,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 18,3 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar 119,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 18,1 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 102,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.


Aloqa axborotlashtirish xizmati 125,8 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 121,4 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibi
(jam'i xajmga nisbatan, % da)




Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
(2023- yil yanvar-iyun, mlrd.so ‘m)



Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi (2023- yil yanvar-iyun)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mldr. so‘m	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mldr. so‘m	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	8 327,9	110,1	100,0	2 764,1	107,7
Namangan sh.	3 318,1	111,1	39,8	4 860,9	108,2
Mingbuloq	313,1	109,3	3,8	2 324,3	107,0
Kosonsoy	425,0	109,1	5,1	1 899,2	106,6
Namangan t.	444,4	109,6	5,4	2 348,8	107,0
Norin	370,1	111,0	4,5	2 136,7	108,9
Pop	528,2	111,6	6,3	2 273,9	109,4
To‘raqo‘rg‘on	542,9	110,3	6,5	2 254,5	107,6
Uychi	534,1	109,2	6,4	2 339,4	106,8
Uchqo‘rg‘on	400,4	109,4	4,8	2 194,2	107,2
Chortoq	449,4	110,9	5,4	2 127,7	108,6
Chust	576,6	104,8	6,9	2 051,9	102,8
Yangiqo‘rg‘on	425,6	111,1	5,1	1 824,3	108,5


Shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga (2023- yil yanvar-iyun, ming so‘m)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida 3 318,1 mlrd. so'm (111,1 %) va Pop tumanida 528,2 mlrd. so'm (111,6 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (4 860,9 ming so'm), Mingbuloq tumanida (2 324,3 ming so'm) va Namangan tumanida (2 348,8 ming so'm) qayd etildi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida alohida xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (121,4 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (125,8 %), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (104,4 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (88,7 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 10,7 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2023- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 76,3 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,2 % ga yetdi.

**2023- yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha
transport xizmatlari tarkibi, % da**



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosini, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan xolda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va matosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar